Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 1

MA’NAVIY MADANIYATNING IJTIMOIY TRANSFORMATSIYASIDA EVOLYUTSION VA SINERGETIK YONDASHUVLAR

Eldorjon Xusanboy o‘ğli Xolyigitov*
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
✉ alfargoniy.uz@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ma’naviy madaniyatning ijtimoiy transformatsiyasini izohlashda evolyutsion va sinergetik yondashuvlarning imkoniyatlari hamda chegaralari tahlil qilinadi. Evolyutsion yondashuv qadriyatlarning uzatilishi va tanlanishini, sinergetik yondashuv esa tizimning inqiroz va bifurkatsiya nuqtalarini yoritishi ko‘rsatildi. Ikki yondashuvni uyg‘unlashtiruvchi to‘rt bosqichli sxema (barqarorlik, tebranish, bifurkatsiya, yangi tartib) ish gipotezasi sifatida taklif etildi.

Kalit so‘zlar

ma’naviy madaniyat, ijtimoiy transformatsiya, evolyutsion yondashuv, sinergetika, o‘z-o‘zini tashkil etish, bifurkatsiya, qadriyatlar.ma’naviy madaniyat, ijtimoiy transformatsiya, evolyutsion yondashuv, sinergetika, o‘z-o‘zini tashkil etish, bifurkatsiya, qadriyatlar.

DOI: 10.5281/zenodo.23279252

Kirish

Ma’naviy madaniyat jamiyatning qadriyatlar, ma’nolar va ramzlar orqali o‘zini anglaydigan qatlami bo‘lib, u iqtisodiy va siyosiy sohalarga qaraganda sekinroq, ammo chuqurroq o‘zgaradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy g‘oya va etnomadaniy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasida saqlash hamda yangilash masalasi ilmiy muhokamaning markaziga chiqdi; jumladan, mamlakat modernizatsiyasi tarixiy poydevorga tayanishi va etnomadaniy qadriyatlarni asrash hamda rivojlantirishning yangi usullarini talab qilishi ta’kidlanadi [1; 42]. Bu qarash an’ana bilan yangilanish o‘rtasidagi munosabat endi shior emas, tadqiqot muammosi ekanini ko‘rsatadi. Uni tavsiflashning o‘zi yetarli emas, o‘zgarishning mexanizmini ham ochish kerak. Globallashuv sharoitida masala yanada keskinlashadi, Samarqand viloyati misolida madaniy almashinuv imkoniyatlari kengaygani bilan birga tijoratlashuv, madaniy bir xillashuv va mahalliy o‘ziga xoslikni saqlash xavfi ham kuchaygani qayd etilgan [2; 378]. Demak, tashqi ta’sirning ijobiy va salbiy tomonlari bir vaqtda kechadi. Bu holat tadqiqotchidan bir tomonlama baho berishdan, ya’ni globallashuvni faqat xavf yoki faqat imkoniyat deb ko‘rishdan saqlanishni talab qiladi. Shundan tadqiqotchi uchun asosiy savol kelib chiqadi, qaysi jarayonlar madaniy o‘zakni mustahkamlaydi, qaysilari uni yemiradi? 2021 yilgi milliy so‘rovga tayangan tahlil qadriyatlar tizimi avlodlar kesimida farqlanayotganini, jamoaviy qadriyatlar asta-sekin korporativ va individualistik qadriyatlarga o‘rin bo‘shatayotganini ko‘rsatadi [3; 159]. Bunday siljish alohida mamlakatga xos hodisa emas, butun mintaqada uchraydigan jarayonning belgisi bo‘lishi mumkin. Shu bois ma’naviy madaniyatning ijtimoiy transformatsiyasini bitta nazariy nuqtadan turib izohlash kamdan-kam ish beradi, bir-birini to‘ldiradigan bir nechta yondashuv talab etiladi. Ma’naviy madaniyat tushunchasining o‘zi keng qamrovli bo‘lgani uchun uning o‘zgarishini ham bir necha darajada, ya’ni shaxs, oila, jamoa va davlat siyosati darajasida ko‘rib chiqish ma’qul. Har bir darajada o‘zgarish sur’ati va mexanizmi turlicha bo‘lishi mumkin, bu esa yagona izohni yanada qiyinlashtiradi.

Ma’naviy madaniyat o‘zgarishini tushuntirishda hozirgi adabiyot asosan ikki yo‘nalishga tayanadi. Birinchisi evolyutsion yondashuv bo‘lib, u madaniyatni o‘rganish orqali uzatiladigan, tanlanadigan va o‘zgaradigan meros sifatida ko‘radi. Uning umumiy qoidasiga ko‘ra, inson ijtimoiy xulqi madaniy va genetik uzatish ta’sirida birga shakllanadi, ya’ni ikki tomonlama merosxo‘rlik mavjud [4; 211]. Bu fikr madaniyatni tayyor holda ”berilgan” narsa deb emas, har avlod qayta ishlab chiqaradigan jarayon deb tushunish mumkin. Ma’naviy qadriyatlarning saqlanishi yoki yo‘qolishini ham shu nuqtai nazardan izohlash mumkin. Ayniqsa, bu yondashuv oila, maktab va jamoa muhitini ma’naviy meros tashuvchisi sifatida jiddiy o‘rganishni taqozo etadi. Ikkinchisi sinergetik yondashuv bo‘lib, u ochiq va nomuvozanatli tizimlardagi o‘z-o‘zini tashkil etish qonuniyatlarini izlaydi. Ijtimoiy sinergetikaning O‘zbekistonda nazariy va amaliy yo‘nalishlarda rivojlanayotgani ilmiy adabiyotda qayd etilgan [5; 63]. Demak, mahalliy ilmiy muhitda bu yondashuv shakllangan, faqat madaniyat masalalariga kamroq tatbiq etilgan. Shu bilan birga bifurkatsiya, fluktuatsiya, attraktor kabi sinergetik tushunchalar ijtimoiy fanlarda ko‘pincha aniq mazmunsiz, majoziy ma’noda ishlatiladi, bu esa ularning ilmiy qiymatini pasaytiradi. Ikki yondashuv odatda alohida ko‘riladi. Evolyutsion nazariya vaqt davomidagi o‘zgarish mexanizmlarini, sinergetika esa tizimning keskin o‘tish nuqtalarini yaxshiroq tushuntiradi. Ularni birlashtiruvchi ishlar esa juda oz. Bu bo‘shliqni to‘ldirish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Shu sababli maqolaning maqsadi ma’naviy madaniyatning ijtimoiy transformatsiyasini izohlashda evolyutsion va sinergetik yondashuvlarning imkoniyatlari hamda chegaralarini so‘nggi besh yillik tadqiqotlar asosida solishtirish va ularni uyg‘unlashtiruvchi nazariy sxemani taklif etishdan iborat. Ishning yangiligi shundaki, ikki yondashuv bir tahlil doirasida taqqoslanadi va ularni bog‘lovchi to‘rt bosqichli sxema beriladi.

Metodlar

Tadqiqot nazariy-metodologik tahlil va qiyosiy sharh usullariga asoslandi. Manba sifatida 2021–2026 yillarda nashr etilgan, ma’naviy madaniyat, qadriyatlar transformatsiyasi, madaniy evolyutsiya yoki o‘z-o‘zini tashkil etish masalalariga bevosita daxldor ilmiy maqolalar tanlandi. Bu mezonlar tasodifiy manbalarning tahlilga kirib qolishini kamaytirishga xizmat qildi. Sinergetik yondashuvni qo‘llashda I. Rizaevning ogohlantirishi hisobga olindi. Sinergetika rivojlanish jarayonining faqat bir tomonini, ya’ni o‘z-o‘zini tashkil etishni tavsiflaydi va dialektikani almashtira olmaydi, shuning uchun dialektik, axborot, tizimli va sinergetik elementlarni birga qo‘llash samaraliroq [5; 62]. Bu fikr metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi. Biz ham bifurkatsiya, attraktor, boshqaruv parametri kabi atamalarni bezak sifatida emas, tahlil vositasi sifatida va aniq ijtimoiy tizim doirasida ishlatdik. Madaniy qadriyatlar transformatsiyasiga bag‘ishlangan ayrim ishlar sotsiomadaniy, tuzilmaviy-funksional va fanlararo yondashuvlarni birga qo‘llaydi [6; 63]. Bizning yo‘limiz ham shu mantiqqa yaqin. Tahlil uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda har bir manbaning tayanch tushunchalari va xulosalari ajratildi. Ikkinchi bosqichda ular evolyutsion (uzatish, tanlanish, merosxo‘rlik) va sinergetik (o‘z-o‘zini tashkil etish, tartib va tartibsizlik, bifurkatsiya) toifalar bo‘yicha guruhlandi. Uchinchi bosqichda guruhlar o‘rtasidagi mos kelish va ziddiyat nuqtalari aniqlandi hamda shu asosda umumlashtiruvchi nazariy sxema qurildi. Manbalarni tanlashda geografik xilma-xillikka e’tibor berildi, chunki bitta mintaqa materialiga tayanish xulosalarni tor doirada qoldirishi mumkin edi. Har bir manbadan olingan fikrlar ularning o‘z kontekstida talqin qilindi va mualliflar xulosalari kengaytirib yuborilmadi. Yakuniy sxema empirik sinovdan o‘tmagani sababli u ish gipotezasi sifatida taqdim etiladi, natijalar esa tanlangan manbalar doirasi bilan cheklanadi.

Natijalar

Evolyutsion yondashuv ma’naviy madaniyatni doimiy o‘zgarib turuvchi, ammo tanlanish qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi tizim sifatida talqin qiladi. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘pchilikka moslashish, nufuzli shaxsga taqlid, foydali natija bergan xulqni tanlash va ota-onadan bolaga o‘tadigan vertikal uzatish kabi mexanizmlar odamlar boshqa madaniyat unsurlarini qabul qilishi yoki o‘z merosini saqlab qolishini belgilaydi [7; 111]. Bu tushuncha tashqi ta’sirdagi jamiyatlarda nega ayrim qadriyatlar tez o‘zgarib, boshqalari barqaror qolishini izohlaydi. YA’ni transformatsiya bir tekisda emas, tanlab boradi. Shuningdek, genetik va madaniy evolyutsiyaning o‘zaro ta’siri hamda turli jamiyatlardagi madaniy psixologiya farqlarini bitta chizmada ko‘rishga urinuvchi kengaytirilgan evolyutsion yondashuv taklif etilgan [4; 207]. Bu ma’naviy madaniyatni biologik tabiatdan ajratmasdan, biroq unga qisqartirmasdan o‘rganish imkonini beradi. Tarixiy materialda

ham shunday yondashuv sinalgan. Seshat ma’lumotlar bazasiga tayangan tahlil ijtimoiy-siyosiy murakkablikning eng katta o‘sishi axloqiy jazo beruvchi ”buyuk xudolar”ga ishonchdan oldin sodir bo‘lganini, bu e’tiqod esa murakkablikning ortishiga taxmin qilingandek hissa qo‘shmaganini ko‘rsatdi [8; 124]. Natija ma’naviy g‘oyalar ijtimoiy tuzilmadan oldin keladi degan keng tarqalgan taxminni jiddiy shubha ostiga qo‘yadi. Shunday ekan, transformatsiyani o‘rganishda sabab va oqibatni oldindan belgilab olmaslik lozim. Nihoyat, arxeologik materialda madaniy belgilarning birlashish, xilma-xillashish va yana birlashishdan iborat o‘z-o‘zidan shakllanuvchi sikllari topilgan; tahlil siyosiy va iqtisodiy barqarorlik davridagi madaniy o‘zgarishga qaratilgan [9; 1034]. Bu holat madaniy o‘zgarish har doim tashqi zarba oqibati emasligini, uning ichki ritmi ham borligini eslatadi. Evolyutsion nazariya bilan o‘z-o‘zini tashkil etish g‘oyasi shu joyda kesishadi. Topilmalar turli fanlardan, ya’ni psixologiya, tarix va arxeologiyadan kelgan bo‘lib, ularning bir-biriga yaqin xulosa berishi evolyutsion yondashuvning fanlararo salohiyatini ko‘rsatadi. Biroq bu ishlar bevosita ma’naviy madaniyat siyosatiga emas, umumiy madaniy o‘zgarish qonuniyatlariga bag‘ishlangani uchun ularni mahalliy sharoitga ehtiyotkorlik bilan ko‘chirish lozim.

Sinergetik yondashuv ma’naviy madaniyatni ochiq, nomuvozanatli tizim deb qaraydi va uning o‘zgarishini tartib bilan tartibsizlik almashinuvi orqali izohlaydi. I. Rizaevning fikricha, ijtimoiy-madaniy o‘z-o‘zini tashkil etishni faqat ijtimoiy omillar darajasida tushunib bo‘lmaydi; unda ma’naviy-ramziy o‘ziga xoslik, an’analarning ma’nosi va madaniyatning qadriyat-mazmuniy asoslari ham hisobga olinishi kerak [5; 63]. Bu pozitsiya sinergetikani quruq model sifatida emas, madaniyatshunoslik usullari bilan birga ishlatishni taklif qiladi. Mavzuimiz uchun ham aynan shu jihat muhim, chunki ma’naviy madaniyat qadriyat va ma’nolar orqali mavjud bo‘ladi. Ijtimoiy sinergetikaning o‘ziga xosligi ham shundaki, u ijtimoiy tartib bilan ijtimoiy tartibsizlik o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi [5; 65]. Muallif ilk jamoa misolida birgalikdagi hayotning boshqaruv parametri madaniy meyorlar bo‘lganini ko‘rsatadi [5; 66]. Bu meyor va an’analarni tizimni barqaror ushlab turuvchi omil sifatida tushunishga yordam beradi. Inqiroz paytida ijtimoiy tuzilma buzilib, tizim yangidan o‘zini tashkil eta boshlaydi, biroq ijtimoiy o‘zgarish natijasi oldindan aniq bo‘lmaydi [5; 67]. Demak, transformatsiyani to‘liq rejalashtirib bo‘lmaydi, lekin sharoitni ongli yo‘naltirish mumkin. S. Kurtov tahlilida ham o‘xshash g‘oya uchraydi. Jamiyat barqarorligi minimal boshqaruv ta’siri bilan ijtimoiy adolat attraktori tomon optimal traektoriya bo‘ylab harakat sifatida ta’riflanadi, ijtimoiy-madaniy metaevolyutsiya esa moslashuvchan barqarorlikni oshiruvchi asosiy omil deb hisoblanadi [10; 76–77]. Bu yerda evolyutsion va sinergetik qarashlar bitta tushuncha doirasida uchrashadi. Sinergetik paradigmaning boshqa fanlarda, xususan ijtimoiy-geografik tadqiqotlarda zamonaviy ilmiy izlanishning asosi sifatida belgilanishi ham bu yondashuvning bitta soha bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi [11; 153]. Shu bois uni ma’naviy madaniyat tahliliga olib kirish uslubiy jihatdan ziddiyat tug‘dirmaydi. Ko‘rinadiki, sinergetika madaniy o‘zgarishda tasodif bilan qonuniyatning birga ishlashini e’tirof etadi. Bu ma’naviy hayotdagi kutilmagan siljishlarni ham ilmiy tushunchalar bilan tavsiflash imkonini beradi. Ayni paytda ijtimoiy tizimlarni tabiiy jarayonlar bilan bir xil deb bo‘lmasligi haqidagi ogohlantirish ham e’tiborga loyiq.

O‘tkazilgan so‘rovda respondentlarning 68,6 foizi barcha fuqarolar uchun umumiy qadriyatlar shakllangan deb hisoblagan, 22,8 foizi esa yagona qadriyat yadrosi yo‘q deb baholagan [3; 154]. Ko‘rsatkichlar jamiyatning katta qismi ma’naviy birlikni his qilishini, ammo har beshinchi kishidan ko‘prog‘i unga shubha bilan qarashini bildiradi. Qadriyat yadrosi bor, lekin u bir xil emas. 2020 yilgi so‘rovda qadriyatlar shakllanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatuvchilar sifatida o‘qituvchilar (46,1 foiz) va ota-ona hamda yaqinlar (46,0 foiz) nomlangan, jamiyat birligi esa an’analarni qayta uzatishga bog‘liq deb ko‘rsatilgan [3; 153]. Bu natija evolyutsion nazariyadagi vertikal uzatish g‘oyasi bilan mos tushadi: ma’naviy meros oila va ta’lim orqali o‘tadi. Mualliflar Ingelxartning modernizatsiya haqidagi evolyutsion nazariyasiga tayanib, qadriyatlar iqtisodiy va jismoniy xavfsizlik darajasiga qarab avlodlar kesimida o‘zgarishini eslatadi, biroq g‘arb konseptual sxemalarini bevosita ko‘chirib bo‘lmasligini ham qayd etadi [3; 160]. Bu ehtiyotkorlik bizga ham xos: evolyutsion sxemani o‘zbek yoki qozoq jamiyatiga mexanik tatbiq etish xato bo‘lardi. Shu bilan birga an’ana modernizatsiyaga to‘siq emas, balki uning yo‘nalishi va sur’atini belgilovchi imkoniyat sifatida ko‘rilgan [3; 161]. Modernizatsiyaning tarixiy poydevor va etnomadaniy qadriyatlarni yangilash usullariga tayanishi ta’kidlanadi [1; 42]. Samarqand tajribasi esa global integratsiya va milliy qadriyatlarni himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni barqaror madaniy

rivojlanishning asosiy maqsadi deb ko‘rsatadi [2; 378]. Keltirilgan uch manbada asosiy g‘oya bir xil: transformatsiya an’anani inkor qilish orqali emas, uni tanlab qayta ishlash orqali sodir bo‘ladi. Bu xulosa ma’naviy siyosatning mazmuniga ham daxldor: an’anani muzeylashtirish yoki butunlay yangilash o‘rniga uni zamonaviy sharoitda ishlaydigan shaklga keltirish maqsadga muvofiq. Mintaqaviy qiyosiy tadqiqotlar bu yo‘nalishni yanada aniqlashtirishi mumkin.

Ma’naviy madaniyat transformatsiyasi ko‘proq modernizatsiya va madaniy xavfsizlik muammolari bilan bog‘lab o‘rganiladi. O. Kerimov Rossiya modernizatsiyasi faqat iqtisodiy va siyosiy institutlarni emas, ijtimoiy-madaniy sohani, ya’ni zamonaviylikka mos qadriyat-meyoriy majmuani shakllantirishni ham qamrab olishini yozadi va g‘arbiy bo‘lmagan jamiyatlar uchun ”ko‘p modernlik” tushunchasining uslubiy salohiyatini ko‘rsatadi [12; 181]. Bu yondashuv yagona, universal taraqqiyot yo‘lini inkor etadi. Shuning uchun uni o‘zbek va qozoq tajribasini tushuntirishda ham qo‘llash mumkin. Bu qarash mintaqa jamiyatlarining rivojlanish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkinligini ilmiy asoslaydi. N. Isachenko esa kitsch madaniyat qadriyat asoslarini o‘zgartirib, madaniy xavfsizlikka tahdid solishini va bunga qarshi himoya strategiyalari kerakligini sotsiomadaniy, tuzilmaviy-funksional hamda fanlararo yondashuvlar orqali tahlil qiladi [6; 63]. Bu yerda madaniy o‘zgarish salbiy yo‘nalishda ham borishi mumkinligi ochiq aytiladi: transformatsiya har doim yuksalish degani emas. Bu holat madaniy siyosatda ehtiyotkorlik va ilmiy monitoring kerakligini ham eslatadi. A. Shpak esa Dj. Stivenson tadqiqotlarini sharhlab, madaniy transformatsiyani hayot sharoitini yaxshilaydigan, lekin jamoalar mavjudligining asoslarini buzmaydigan o‘zgarish deb tushunish mumkinligini, buning uchun g‘arb va an’anaviy ildizli madaniyat tasavvurlarini uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [13; 1]. YA’ni yangilanish mavjudlik poydevorini yemirmasligi kerak. Bu tavsif sinergetik nuqtai nazardan tizim o‘zagini saqlagan holda o‘tish sharti, evolyutsion nuqtai nazardan esa foydali unsurlarni tanlab olish sharti sifatida ko‘rinadi. Biznigcha, uch ish ham umumiy sxemani mahalliy sharoit bilan uyg‘unlashtirish zarurligiga ishora qiladi. Ayni shu fikr ”an’ana modernizatsiyaning asosi” degan qarashga yaqin turadi. Uch ishning umumiy nuqtasi shuki, madaniy o‘zgarish qadriyatlar tizimini qayta qurishni talab qiladi. Shu sababli ikki mintaqa tajribasini solishtirish keyingi tadqiqotlar uchun foydali yo‘nalish bo‘lib ko‘rinadi. Mazkur natijalar keyingi bo‘limda taklif etiladigan sxemaning asosini tashkil etadi.

Muhokama

Tahlil evolyutsion va sinergetik yondashuvlar bir-birining o‘rnini bosmasligini, balki o‘zgarishning turli qatlamlarini yoritishini ko‘rsatdi. Evolyutsion nazariya ma’naviy qadriyatlar qanday uzatilishi, qaysi unsurlar saqlanishi va qaysilari tanlab olinishini tushuntiradi; bunda madaniy va genetik merosning ikki tomonlama xarakteri tayanch vazifasini o‘taydi [4; 211]. Biroq bu nazariya o‘zgarishning qachon va nega keskin tus olishini kamroq izohlaydi. Sinergetika aynan shu bo‘shliqni to‘ldiradi: tizim inqirozga yetganda tuzilma buziladi, keyin esa o‘z-o‘zini tashkil etish boshlanadi [5; 67]. Bu ikki fikrni birlashtirib, to‘rt bosqichli sxema taklif etamiz. Birinchi bosqichda qadriyatlar oila va ta’lim orqali barqaror uzatiladi, evolyutsion mexanizmlar ustun bo‘ladi. Bu davrda jamiyat o‘zgarishlarni keskin larzalarsiz qabul qiladi. Ikkinchi bosqichda globallashuv, texnologik va axborot oqimlari ta’sirida tebranishlar kuchayadi; masalan, Qozog‘istonda avlodlar o‘rtasidagi qadriyat masofasi kengayayotgani va jamoaviy qadriyatlar o‘rnini individualistik qadriyatlar egallayotgani kuzatilgan [3; 159]. Uchinchi bosqichda tizim bifurkatsiya nuqtasiga keladi: eski qadriyat yadrosi saqlanishi ham, yangisiga o‘tish ham mumkin. Aynan shu nuqtada tashqi ta’sirning kichik ko‘rinadigan turtkisi ham katta oqibat keltirishi mumkin. To‘rtinchi bosqichda tanlangan variant evolyutsion tanlash orqali mustahkamlanadi va yangi tartib shakllanadi. Bosqichlar qat’iy ketma-ketlik emas: real hayotda ular bir-biriga o‘tib, hatto bir vaqtda turli ijtimoiy guruhlarda turli holatda kuzatilishi mumkin. Shunga o‘xshash siklik jarayon arxeologik materialda birlashish, xilma-xillik va qayta birlashish ketma-ketligi sifatida qayd etilgan [9; 1034]. Shu jihatdan sxemamiz mavjud ma’lumotlarga zid emas. Uning afzalligi ma’naviy siyosat uchun aniq savol berishida: jamiyat qaysi bosqichda turibdi va shu bosqichda qanday ta’sir eng kam zarar keltiradi? Albatta, bu sxema hozircha nazariy taklif; uni O‘zbekiston materialida empirik tekshirish alohida ishni talab qiladi. Tekshirish jarayonida bosqichlarni ajratuvchi ko‘rsatkichlar, masalan, avlodlararo qadriyat farqi, oila va ta’lim ta’sirining darajasi, madaniy almashinuv intensivligi oldindan aniq belgilab olinishi kerak.

Har ikki yondashuvning cheklovlarini ham ochiq aytish kerak. Sinergetikadan ijtimoiy tadqiqotlarda foydalanish ko‘pincha uning qonunlarini mutlaqlashtirish va falsafiy metodologiyani, xususan dialektikani inkor etish bilan bog‘lanib qoladi [5; 64]. Bunday holda tushunchalar chiroyli metaforaga aylanadi, lekin aniq izoh bermaydi. Bu tanqid ma’naviy madaniyat mavzusida ayniqsa o‘rinli, chunki qadriyatlar tizimini ”tebranish” yoki ”attraktor” deb atash uning ichki mazmunini ochib bermaydi. Muallif yana bir muhim shartni qo‘yadi: qaysi jamiyat haqida gap ketayotgani aniqlanmasa, o‘z-o‘zini tashkil etishni ijtimoiy tizimga tatbiq etish chalkashlikka olib keladi [5; 68]. Demak, o‘zbek, qozoq yoki rus jamiyatlarini bitta ”madaniy tizim” deb bo‘lmaydi; har birining tarixiy va institutsional o‘ziga xosligi hisobga olinishi zarur. Evolyutsion yondashuvning xavfi boshqacha: u sabab-oqibat munosabatini oldindan taxmin qilib qo‘yishi mumkin. Seshat ma’lumotlariga tayangan tahlil esa axloqiy xudolarga e’tiqod murakkab jamiyatni yaratadi degan mashhur farazni tasdiqlamadi [8; 124]. Bu holat nazariy sxemalarni tarixiy ma’lumotlar bilan tekshirish zarurligini yana bir bor ko‘rsatadi. Demak, evolyutsion yondashuvni ma’naviy g‘oyalarning ijtimoiy rolini kamsituvchi yoki, aksincha, ortiqcha baholovchi tarafga burib yubormaslik kerak. Tadqiqotchilar ham g‘arbiy nazariyalarni bevosita ko‘chirish imkoni yo‘qligini qayd etgan [3; 160]. Shuning uchun taklif etilgan sxema tayyor qolip emas, mahalliy materialda sinaladigan ish gipotezasi sifatida qaralishi lozim. Yana bir cheklov ma’lumotlar bilan bog‘liq: ko‘rib chiqilgan ishlar ichida qadriyatlar o‘zgarishini bir necha yillik takroriy so‘rov bilan o‘lchagan tadqiqot tadqiqotlarda uchraydi [3; 152]. Demak, cheklovlarni bilish nazariyaning kuchini kamaytirmaydi, aksincha, uni to‘g‘ri qo‘llash chegarasini belgilaydi.

Nazariy xulosalar amaliy siyosat uchun ham ma’lum yo‘l-yo‘riq beradi. Birinchidan, qadriyatlar shakllanishiga o‘qituvchi va ota-ona eng katta ta’sir ko‘rsatishi (Qozog‘istonda taxminan 46 foiz) oila va maktabni ma’naviy siyosatning asosiy bo‘g‘inlari sifatida ko‘rishni talab qiladi [3; 153]. Bizning fikrimizcha, bu ikki institut o‘zgarish sharoitida madaniy o‘zakning tashuvchisi vazifasini bajaradi. Ularni zaiflashtiradigan har qanday islohot uzoq muddatda ma’naviy barqarorlikka zarar yetkazishi mumkin. Bu ma’lumot Qozog‘iston respondentlariga tegishli, shu sababli uni O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmasdan, mahalliy so‘rovlar bilan tekshirish kerak. Ikkinchidan, yoshlarni milliy g‘oya va etnomadaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi O‘zbekistonda ilmiy jamoatchilik e’tiborida turibdi [1; 42]. Ammo bu tarbiya shior darajasida qolmasligi, yoshlarning kundalik tajribasi va axborot muhiti bilan bog‘lanishi kerak. Uchinchidan, Kurtov ta’rifida barqarorlik minimal boshqaruv ta’siri bilan optimal traektoriya bo‘ylab harakat sifatida keladi [10; 76–77]. Bundan ma’naviy sohada ma’muriy tazyiqdan ko‘ra shart-sharoit yaratishga, ya’ni ta’lim, madaniy muhit va ochiq muloqotga tayanish afzalligi kelib chiqadi. To‘rtinchidan, madaniy almashinuvdan olinadigan foyda bilan uning xavflari birga hisoblanishi kerak [2; 378]. Turizm va raqamli madaniyat kengayayotgan hududlarda tijoratlashuv va bir xillashuvga qarshi mahalliy dasturlar kerak bo‘ladi. YA’ni madaniy siyosat chegaralarni yopishga emas, tanlab qabul qilish qobiliyatini kuchaytirishga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, hech bir amaliy tavsiya universal emas: jamiyatning tarixiy sharoiti, avlodlar tarkibi va ijtimoiy tuzilmasi hisobga olinishi shart. Shuning uchun har bir mintaqada avval diagnostika o‘tkazib, keyin tadbirlar rejasini tuzish ma’qul. Monitoring natijalari dastur mazmunini vaqti-vaqti bilan yangilab borish imkonini ham beradi. Aytilganlar bir vaqtda ham ilmiy, ham amaliy tavsiya bo‘lib, ularni hududiy sharoit bilan moslab qo‘llash zarur. Oxir-oqibat asosiy maqsad madaniy o‘zlikni saqlagan holda yangilanish qobiliyatini oshirishdir. Bunday izchil yondashuv ma’naviy siyosatni tasodifiy tashabbuslar to‘plamidan ilmiy asoslangan tizimga aylantiradi.

Xulosa

Ma’naviy madaniyatning ijtimoiy transformatsiyasi bir omilga bog‘lanadigan oddiy jarayon emas; uni izohlash uchun bir-birini to‘ldiruvchi nazariy vositalar kerak. Evolyutsion yondashuv qadriyatlar qanday uzatilishi, tanlanishi va saqlanishini ochib beradi, sinergetik yondashuv esa tizim barqaror holatdan chiqib, yangi tartibga o‘tadigan nuqtalarni yoritadi. Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar ikki yondashuvni birlashtirish ilmiy jihatdan asosli ekanini ko‘rsatdi: I. Rizaevning fikricha, ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda dialektik, axborot, tizimli va sinergetik elementlar sintezi samaraliroq [5; 62]. Bu sintez bizningcha nazariy qulaylik emas, mintaqadagi real o‘zgarishlarni tushuntirish uchun zarur vositadir. Maqolada taklif etilgan to‘rt bosqichli sxema (barqarorlik, tebranish, bifurkatsiya, yangi tartib) ma’naviy madaniyat o‘zgarishini bosqichma-bosqich tahlil qilishga

imkon beradi, ammo u hozircha ish gipotezasi. Uning kuchi tushunchalarni bog‘lashida, zaifligi esa hali empirik sinovdan o‘tmaganida. Amaliy jihatdan oila va ta’lim tizimini mustahkamlash, madaniy almashinuvning foydasi va xavflarini birga baholash hamda boshqaruvda minimal aralashuv tamoyiliga tayanish tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlar uchun uch yo‘nalish ustuvor. Ularning har biri mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan. Birinchidan, sxemani O‘zbekiston hududlarida so‘rov va sifat usullari bilan tekshirish. Ikkinchidan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida qadriyatlar o‘zgarishini taqqoslash. Uchinchidan, raqamli muhitning ma’naviy madaniyatga ta’sirini alohida o‘rganish. Bu yo‘nalishlar bir-birini to‘ldiradi. Bu ishlar bajarilgach, nazariy sxemani takomillashtirish va uni ma’naviy siyosatni rejalashtirishda ishonchli vosita sifatida qo‘llash mumkin bo‘ladi. Ko‘rib chiqilgan manbalar bir tomondan mintaqaviy materialning boyligini, ikkinchi tomondan nazariy izchillikka bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatdi. Shu ma’noda maqola natijalari keyingi so‘rov va tarixiy tadqiqotlar uchun nazariy tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ma’naviy madaniyat o‘zgarishini ham tarixiy davomiylik, ham tanlov va yangilanish nuqtasi sifatida ko‘rish kerak. Shunda an’ana ham, yangilanish ham tadqiqotchi nazarida bir jarayonning ikki yuzi bo‘lib ko‘rinadi.

Adabiyotlar

1. Baxronov D. Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o‘rni // FarDU ilmiy xabarlari. – 2024. – 30-jild, 4-son. – B. 42. – URL: https://journal.fdu.uz/main/article/2315

2. Khalikulova U.R. Globalization and the Development of Cultural Life in the Samarkand Region: Historical Transformation and Contemporary Trends // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2026. – Vol. 7, No. 2. – P. 378–383. – DOI: 10.51699/cajssh.v7i2.1403

3. Burova E., Sagikyzy A., Akulich M. Transformation of mentality in the context of modernization tasks // Vestnik KazNU. Seriya psixologii i sotsiologii. – 2022. – Vol. 81, No. 2. – P. 149–164. – DOI: 10.26577/JPsS.2022.v81.i2.015

4. Henrich J., Muthukrishna M. The origins and psychology of human cooperation // Annual Review of Psychology. – 2021. – Vol. 72. – P. 207–240. – DOI: 10.1146/annurev-psych-081920-042106

5. Rizaev I. Synergetics in Social Systems and its Possibilities // Global Scientific Review. – 2022. – Vol. 10. – P. 62–69.

6. Isachenko N.N. Transformatsiya sennostnix osnov kulturi kak ugroza kulturnoy bezopasnosti // Kultura i iskusstvo. – 2024. – № 2. – S. 63–71. – DOI: 10.7256/2454-0757.2024.2.69781

7. Kunst J.R., Mesoudi A. Decoding the dynamics of cultural change: A cultural evolution approach to the psychology of acculturation // Personality and Social Psychology Review. – 2025. – Vol. 29, No. 2. – P. 111–144. – DOI: 10.1177/10888683241258406

8. Whitehouse H., François P., Savage P.E., Hoyer D., Feyeney K.C., Cioni E., Purcell R., Larson J., Baines J., ter Haar B., Covey A., Turchin P. Testing the Big Gods hypothesis with global historical data: a review and “retake” // Religion, Brain & Behavior. – 2023. – Vol. 13, No. 2. – P. 124–166. – DOI: 10.1080/2153599X.2022.2074085

9. Diachenko A., Sobkowiak-Tabaka I. Self-organized cultural cycles and the uncertainty of archaeological thought // Journal of Archaeological Method and Theory. – 2022. – Vol. 29. – P. 1034–1057. – DOI: 10.1007/s10816-022-09548-8

10. Kurtov S.Y. Evolyutsionno-sinergeticheskiy podxod k probleme sotsialnoy ustoychivosti // Sovremenniye issledovaniya sotsialnix problem. – 2023. – T. 15, № 3. – S. 76–96. – DOI: 10.12731/2077-1770-2023-15-3-76-96

11. Niemets L., Kravchenko K., Sehida K., Telebienieva I., Kliuchko L. Informational and synergetic component of human-geographical research in the scientific heritage of Kostiantyn Niemets // Visnik Xarkivskogo natsionalnogo universitetu imeni V.N. Karazina. Seriya «Geologiya. Geografiya. Yekologiya». – 2022. – № 57. – S. 153–172. – DOI: 10.26565/2410-7360-2022-57-12

12. Kerimov O.Y. Rossiyskaya modernizatsiya v kontekste sotsiokulturnogo diskursa // Gosudarstvennoye i munitsipalnoye upravleniye. Uchyoniye zapiski. – 2024. – № 1. – S. 181–186.

13. Shpak A.A. The value of culture in economic, technological and social transformations. Part 2 // Asia, America and Africa: history and modernity. – 2023. – Vol. 2, No. 2. – P. 1–27. – DOI: 10.31804/2782-540X-2023-2-2-1-27